

TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH TADBIRKLARGA IQTISODIY MANFAAT VA SAMARADORLIK BERMOQDA

Dang'ara tumanidagi "Marrakesh agro plus" MChJning gidropponika usulida pomidor yetishtirish loyihasi hamda muqobil energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etish ishlari buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov tumanda bo'lib, mazkur jarayon bilan tanishdi.

8 getkta maydondagi issiqxonada pomidor yetishtirilyapti. Mahsulotlar xorija eksport qilinadi. Bu yerda Xitoydan keltirilgan zamonaviy isitish qozonlari hamda 300 kWtli quyosh panellari o'rnatildi.

Loyha qiymati 3 mln. dollar. Bunday texnologiyalarning joriy etilishi elektr energiyasi hamda yoqilg'i mahsulotlarining sarfini ikki-uch barobar qisqartirdi. Quyosh panellarining o'rnatilishi hisobiga yiliga elektr energiyadan o'rtacha 330 mln. so'm iqtisod qilinmoqda. Tabiiy gaz bilan bir oyda 206 mln. so'mdan ortiq mablag' sarf etilgan. Tejamkor ko'mir qozoni esa bir oyda 116 mln. so'mni tejashga xizmat qilyapti.

Viloyat rahbari tomonidan loyihalar ko'zdan kechirilib, bu ishlarni davom ettirish, energiya tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-02 22:52:56